O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 027(575.1)(091)

Shaxnoza A. RAXIMOVA,
PhD, dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: shaxnozaanvarovna 11@gmail.com, ORCID: 0009-0005-7116-0575

UzMU professori, s.f.d X.Xusanova taqrizi asosida

HISTORICAL DEVELOPMENT AND INSTITUTIONAL MODELS OF LIBRARIES IN CENTRAL ASIA

Annotation

The article examines the historical development of libraries in Central Asia from the 9th century to the present day through an institutional approach. The author proposes a five-stage periodization: the First Renaissance (9th century – 1220), the Second Renaissance (1370–1501), the rule of the Shaybanids and Ashtarkhanids (16th–17th centuries), the period of the khanates and colonial administration (18th century – 1917/1920), and the Soviet and independence periods. Each stage is assessed against five criteria: organizational form, formal and informal norms, statuses and roles, resource base, and degree of social openness. A comparative analysis identifies two models of the library institution: the dynastic-patronage model and the waqf-community model. The study demonstrates that the historical sustainability of libraries was ensured not by the ruler’s patronage but by formalized norms, an independent financial base, and professional status.

Key words: library history, Central Asia, institutional analysis, waqf library, palace library, periodization, manuscript heritage, kitabkhana, library institution, information-library activity.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ БИБЛИОТЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В статье на основе институционального подхода исследуется историческое развитие библиотек Центральной Азии с IX века до настоящего времени. Автор предлагает пятиэтапную схему периодизации: Первый Ренессанс (IX в. – 1220 г.), Второй Ренессанс (1370–1501 гг.), правление Шейбанидов и Аштарханидов (XVI–XVII вв.), период ханств и колониального управления (XVIII в. – 1917/1920 гг.), советский период и годы независимости. Каждый этап оценивается по следующим критериям: организационная форма, формальные и неформальные нормы, статусы и роли, источник ресурсов и степень социальной открытости. В результате сравнительного анализа выделены династически-патронажная и вакфно-общинная модели библиотечного института. Исследование показывает, что историческую устойчивость библиотек обеспечивало не покровительство правителя, а формализованные нормы, самостоятельная финансовая база и профессиональный статус.

Ключевые слова: история библиотек, Центральная Азия, институциональный анализ, вакфная библиотека, дворцовая библиотека, периодизация, рукописное наследие, китабхана, библиотечный институт, информационно-библиотечная деятельность.

MARKAZIY OSIYO KUTUBXONALARINING TARIXIY RIVOJI VA INSTITUTSIONAL MODELLARI

Annotatsiya

Maqolada Markaziy Osiyo kutubxonalarining IX asrdan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy rivoji institutsional yondashuv asosida o‘rganilgan. Muallif besh bosqichli davriylashtirish sxemasini taklif etadi: Birinchi Renessans (IX asr – 1220 y.), Ikkinchi Renessans (1370–1501 yy.), shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi (XVI–XVII asrlar), xonliklar va mustamlaka boshqaruvi (XVIII asr – 1917/1920 yy.), sovet davri va mustaqillik yillari. Har bir bosqich tashkiliy shakl, rasmiy va norasmiy normalar, maqom va rollar, resurs manbai hamda ijtimoiy ochiqlik darajasi mezonlari asosida baholangan. Qiyosiy tahlil natijasida kutubxona institutining sulolaviy-patronaj va vaqf-jamoa modellari ajratilgan. Tadqiqot kutubxonalarning tarixiy barqarorligini hukmdor homiyligi emas, rasmiylashgan normalar, mustaqil moliyaviy asos va kasbiy maqom ta’minlaganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kutubxona tarixi, Markaziy Osiyo, institutsional tahlil, vaqf kutubxonasi, saroy kutubxonasi, davriylashtirish, qo‘lyozma merosi, kitobxona, kutubxona instituti, axborot-kutubxona faoliyati.

Kirish. Kutubxona insoniyat bilimini saqlash va avlodlarga yetkazishga xizmat qiluvchi eng qadimiy ijtimoiy institutlardan biridir. Bu borada Markaziy Osiyo jahon madaniyatida alohida o‘rin tutadi: Somoniylar, Xorazmshohlar va temuriylar davrida mintaqa kitob xazinalari Sharq va G‘arb olimlari uchun muhim ilm manbai bo‘lgan. Mazkur meros bugungi O‘zbekistonda yangi ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» asarida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasini ilgari surib, buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi [1]. Bu vazifa kutubxonashunoslik oldiga aniq talab qo‘yadi: o‘tmish kutubxonalari tarixini tizimli tadqiq etish va undan zamonaviy axborot-kutubxona tizimi uchun xulosa chiqarish.

Soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. «Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun kutubxonalar faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab berdi [2]. Prezidentning 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qarori bilan axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [3]. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish sohaning tarixiy ildizlarini chuqur bilishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo kutubxonachiligi tarixini davriylashtirish va har bir bosqichni institutsional mezonlar asosida tahlil qilishdan iborat. Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi: davriylashtirish mezonlarini aniqlash, har bir bosqichda yetakchi bo‘lgan kutubxona shakllarini tavsiflash, kutubxona institutining tarixiy modellarini ajratish va zamonaviy axborot-kutubxona muassasalari uchun amaliy xulosalar chiqarish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mintaqa kutubxonachiligi tarixiga oid adabiyotlarni uch guruhga ajratish mumkin. Dastlabki tadqiqotlar sharqshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. V.V.Bartold Turkistonning madaniy hayotini o‘rganib, Movarounnahrda madrasalar Bag‘doddagidan oldinroq paydo bo‘lganini asoslagan[4]. A.A.Semyonov O‘rta Osiyo qo‘lyozma fondlarining tarkibi va taqdirini tadqiq etgan[5]. P.G.Bulgakov esa Beruniy faoliyati misolida Xorazm saroy kutubxonasining ilmiy ahamiyatini ochib bergan [6].

Ikkinchi guruh milliy kutubxonashunoslik maktabi vakillarining ishlaridan iborat. A.G‘. Qosimova O‘zbekistonda kutubxonachilik tarixini birinchilardan bo‘lib tizimli yoritgan[7]. Uning tahriri ostida nashr etilgan jamoaviy monografiyada XX asr kutubxonachiligi batafsil tahlil qilingan[8]. A.I.Kormilitsin kutubxonashunos va bibliograflar faoliyatini o‘rganib, o‘rta asr fihristlarini bibliografiyaning dastlabki namunalari sifatida baholagan[9]. E.O.Oxunjonov vatan kutubxonachiligi tarixini to‘rt davrga bo‘lib, o‘rta asrlar doirasida uch bosqichni farqlagan[10]. A.A.Umarov kutubxonani uzluksiz ta’lim va shaxs madaniy kamolotining muhim omili sifatida talqin etadi[11].

Uchinchi guruhni xorijiy mualliflarning asarlari tashkil qiladi. M. Harris G‘arb kutubxonalari tarixini yoritar ekan, o‘rta asr islom dunyosi kutubxonalarining yuksak darajasini alohida qayd etgan[12]. J.Pedersen arab kitobi tarixida vaqf kutubxonalarining ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatib bergan [13]. S.Myurrey kutubxonalarning umumjahon tarixida Markaziy Osiyo va Xuroson markazlarini tilga olgan [14].

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, ularda kutubxonalar faoliyati asosan sulolalar tarixi doirasida bayon etiladi. Kutubxonani ijtimoiy institut sifatida aniq mezonlar asosida tahlil qilish masalasi hanuzgacha yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, davriylashtirish, manbashunoslik va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Ishning nazariy asosini institutsional nazariya tashkil etadi. D.Nort institutlarni jamiyatdagi «o‘yin qoidalari», ya’ni rasmiy va norasmiy cheklovlar tizimi sifatida ta’riflaydi [15]. P.Berger va T.Lukman esa ularni barqarorlashgan amaliyot va ijtimoiy rollar majmui deb hisoblaydi [16]. Ushbu yondashuvlarga tayangan holda kutubxonaning ijtimoiy institut sifatida shakllanganlik darajasini baholash uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

1) tashkiliy shakl (saroy, vaqf, madrasa, shaxsiy va ommaviy kutubxonalar);

2) faoliyatni tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy normalar (vaqf shartlari, foydalanish qoidalari, yo‘riqnomalar);

3) maqom va rollar (xozin, vakil, kitobdor, muhofiz, kutubxonachi);

4) resurs ta’minoti (davlat xazinasi, vaqf daromadi, xususiy mablag‘);

5) ijtimoiy ochiqlik darajasi, ya’ni foydalanuvchilar doirasi.

Tadqiqotning empirik bazasini hujjatli materiallar (vaqfnomalar, farmonlar, arxiv hujjatlari), hikoya tarzidagi yozma yodgorliklar (solnomalar, sayohatnomalar, tazkiralar) va qo‘lyozmalardagi muhr va qaydlar tashkil etdi. Davriylashtirishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida kutubxonalar mustaqil ijtimoiy-madaniy institut maqomini egallagan IX asr olindi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijasida O‘zbekiston hududida kutubxonachilik ishi rivojining besh tarixiy davri ajratildi. Davrlar ketma-ketligi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. O‘zbekiston hududida kutubxonachilik ishi rivojining tarixiy davrlari

Birinchi davr (IX asr – 1220 y.) Birinchi Renessans bilan bog‘liq. Aynan shu bosqichda kutubxona kitob saqlash joyidan mustaqil ilmiy-madaniy institutga aylandi. Buxorodagi Somoniylar kutubxonasi mintaqadagi eng yirik qo‘lyozma majmuasi hisoblangan. 996-yilda undan foydalanish huquqini olgan Ibn Sino kitob xazinasini har bir xonasida ilmning muayyan sohasiga oid asarlar saqlangan muassasa sifatida tasvirlaydi [10]. Gurganjdagi Xorazmshohlar saroy kutubxonasi Ma’mun akademiyasi olimlariga xizmat qilgan [6]. Vazifalarning xozin va vakil o‘rtasida taqsimlanishi, kitoblarning ilm sohalari bo‘yicha turkumlanishi va fihristlar tuzilishi kutubxonaning institutsional shakllanganidan dalolat beradi.

Mazkur bosqichda vaqf kutubxonalari tarmog‘i qaror topdi. Bu mintaqa kutubxonachiligining muhim yutug‘i bo‘lib, vaqf kitob majmualarini keng jamoatchilik ixtiyoriga o‘tkazdi. Yoqut Hamaviyning yozishicha, 1216–1219-yillarda Marvda o‘nta vaqf kutubxonasi faoliyat ko‘rsatgan, ulardan ikkitasida 12 ming jildga yaqin kitob saqlangan va kitoblar garovsiz berilgan [10]. 1220-yildagi mo‘g‘ullar istilosi bu tizimga jiddiy zarba berdi.

Ikkinchi davr (1370–1501 yy.) kutubxona madaniyatining cho‘qqisi sifatida baholanadi. Amir Temur Samarqandda tashkil etgan saroy kutubxonasi fondi turli mamlakatlardan keltirilgan arab, fors, turkiy, yunon va lotin tillaridagi qo‘lyozmalar bilan boyitildi [10]. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi qoshida ixtisoslashgan ilmiy kutubxona faoliyat yuritgan. Hirotda Boysunqur Mirzo asos solgan kitobxona-ustaxonada qirq nafar xattot, musavvir, naqqosh va muqovasoz mehnat qilgan. Ye.E. Bertels bu yerda tayyorlangan «Shohnoma» nusxasini matnshunoslikning yuksak yutug‘i deb baholaydi [17]. Kitobdorlar uchun maxsus yo‘riqnomalar ishlab chiqilib, kitobdor mansabi rasmiylashtirildi.

Temuriylar davrida vaqf modeli o‘zining barqarorligini namoyon etdi. XIV asr oxirida Xoja Muhammad Porso Buxoroda barcha ilm ahli uchun ochiq kutubxona tashkil etgan va u XIX asrning 40-yillarigacha, ya’ni qariyb to‘rt yarim asr faoliyat ko‘rsatgan [9]. Saroy kutubxonasi esa 1501-yildan keyingi siyosiy nizolar oqibatida talon-taroj qilinib, tarqalib ketgan [7].

Uchinchi davr (XVI–XVII asrlar) shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligini qamrab oladi. Bu vaqtda Buxoro qo‘lyozma kitob ishlab chiqarishning yirik markaziga aylandi, Abdulazizxon kutubxonasida esa Mir Ali Hiraviy kabi mashhur xattotlar ishladi. Shayboniylar saroy kutubxonasi temuriylarnikidan farqli o‘laroq sulola almashganda tarqalmay, ashtarxoniylarga meros bo‘lib o‘tdi [10]. Sherdor va Tillakori madrasalarida kitob xonalari bilan birga mutolaa zallari ham ko‘zda tutilgan [9]. Shu bilan birga fond tarkibida diniy adabiyot ulushi ortib bordi.

To‘rtinchi davr (XVIII asr – 1917/1920 yy.) xonliklar va mustamlaka boshqaruvi bilan tavsiflanadi. Kutubxonalar hukmdor xazinasidan ajralib, mustaqil bo‘linma sifatida shakllana boshladi, biroq ularning resurs bazasi qisqardi. 1820-yilda Buxoroga kelgan Ye.K. Meyendorf poytaxtda 300 jilddan ortiq kitobga ega birorta kutubxona yo‘qligini qayd etgan [5]. A.N. Samoylovich 1908-yilda Xiva xonining ikki kutubxonasini tavsiflagan [18]. 1870-yilda Toshkentda dastlabki fondi 2200 jilddan iborat Turkiston ommaviy kutubxonasi ochildi [9]. U mintaqadagi yevropacha tipdagi ilk ommaviy kutubxona edi. 1920-yilda Buxoro Arkida saqlangan 47,5 mingga yaqin qo‘lyozma va toshbosma kitob deyarli butunlay nobud bo‘ldi [10].

Beshinchi davr (1917-yildan hozirgacha) sovet davri va mustaqillik yillarini o‘z ichiga oladi. Sovet hokimiyati yillarida kutubxonalar tarmog‘i miqdor jihatdan tez kengayib, markazlashgan boshqaruv tizimi shakllandi. 1974-yilda Toshkent davlat madaniyat institutining ochilishi bilan kasbiy ta’lim tizimi yaratildi [8]. Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi (2002) tashkil etildi, soha qonuni (2011) qabul qilindi [2], 2019-yildan esa tuman axborot-kutubxona markazlari tarmog‘i barpo etildi [3]. Davrlarning institutsional mezonlar bo‘yicha qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda kutubxona muassasalari institutsional rivojlanishining davrlari

Davr	Yetakchi tashkiliy shakllar	Normalar, maqom va rollar	Resurs manbai va ochiqlik
IX asr – 1220 y.	Somoniylar va Xorazmshohlar saroy kutubxonalari, madrasa va vaqf kutubxonalari	Xozin va vakil, fan sohalari bo‘yicha turkumlash, fihristlar	Xazina va vaqf, vaqf kutubxonalari ochiq, saroy kutubxonalari yopiq
1370–1501 yy.	Temuriylar saroy kitobxona-ustaxonalari, vaqf va shaxsiy kutubxonalar	Kitobdor mansabi, yo‘riqnomalar, muhr-ekslibrislar	Hukmdor homiyligi, vaqf kutubxonalari nisbatan ochiq
XVI–XVII asrlar	Sulolaviy kutubxona, madrasa-vaqf kutubxonalari, mutolaa zallari	Shtatli xodimlar, muhofizlar	Vaqf va xon xazinasi, mudarris va tolibi ilmlar
XVIII asr – 1917/1920 yy.	Xon va amir kutubxonalari, xususiy to‘plamlar, Turkiston ommaviy kutubxonasi	Kutubxonaning xazinadan ajralishi, yevropacha kataloglash	Resurslar qisqarishi, fondlarning olib ketilishi
1917 yildan hozirgacha	Davlat kutubxona tarmog‘i, Milliy kutubxona va AKMlar tizimi	Davlat standartlari, kasbiy ta’lim, 2011-yilgi Qonun	Davlat budjeti, ommaviy foydalanish, raqamli xizmatlar

Jadval va manbalar tahlili kutubxona institutining ikki tarixiy modelini ajratish imkonini beradi (2-rasm). Sulolaviy-patronaj modelida resurs, fond va foydalanish tartibi hukmdor shaxsiga bog‘liq bo‘lgan. Sulola almashganda bunday kutubxonalar ko‘pincha tarqalib ketgan. Vaqf-jamoa modeli esa vaqfnoma shartlari, mustaqil daromad va kitobdor maqomiga tayangani uchun asrlar davomida barqaror faoliyat yuritgan.



2-rasm. Kutubxona institutining tarixiy modellari

Vaqf kitoblaridagi «sotilmaydi, meros qilib qoldirilmaydi» shartlari rasmiy normani, kitobni qaytarishdagi diniy mas’uliyat esa norasmiy nazoratni ifodalagan. D.Nort fikricha, aynan shu normalarning uyg‘unligi institut barqarorligini ta’minlaydi [15]. Biroq savodxonlikning pastligi har ikki modelda ham ijtimoiy ochiqlikni cheklagan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot Markaziy Osiyo kutubxonachiligi IX asrdan hozirgi kungacha besh tarixiy davrni bosib o‘tganini ko‘rsatdi. Bu davrlar kutubxonaning ijtimoiy institut sifatida shakllanganlik darajasi bilan farqlanadi. O‘rta asrlarda kutubxona institutining sulolaviy-patronaj va vaqf-jamoa modellari qaror topgan. Ularning qiyosiy tahlili kutubxonaning tarixiy barqarorligi hukmdor homiyligiga emas, rasmiylashgan normalar, mustaqil resurs manbai va kasbiy maqomga bog‘liq bo‘lganini tasdiqlaydi.

Bu xulosa zamonaviy axborot-kutubxona muassasalari uchun ham dolzarb. Ularning faoliyatini takomillashtirish me’yoriy-huquqiy bazani va xizmat standartlarini rivojlantirishni, byudjetdan tashqari barqaror moliyalashtirish manbalarini shakllantirishni talab etadi. Bu borada vaqf tajribasi zamonaviy fondlar uchun namuna bo‘la oladi. Kutubxonachi kasbining ijtimoiy maqomini oshirish va kasbiy ta’limni rivojlantirish ham shunday ahamiyatga ega. Vaqfnomalar va qo‘lyozmalardagi muhrlar asosida alohida kutubxonalar fondi tarkibini qayta tiklash kelgusi tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 2011-yil 13-aprel, O‘RQ-280-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-1769736
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-4372449
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Бартольд В.В. Сочинения. – Т. II, ч. 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963.
5. Семёнов А.А. Среднеазиатские рукописные фонды и важность их изучения // Материалы Первой Всесоюзной научной конференции востоковедов в г. Ташкенте. – Ташкент, 1958.
6. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. – Ташкент: Фан, 1972.
7. Қосимова А.Ғ. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи. – 2-нашри, қайта ишланган ва тўлдирилган. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
8. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши / А.Ғ. Қосимованинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
9. Кормилицын А.И. Библиотековеды и библиографы Узбекистана: очерки и воспоминания / отв. ред. А. Умаров. – Ташкент: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана им. А. Навои, 2005.
10. Охунжонов Э.О. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 1-қисм: Қадимият, илк ўрта ва ўрта асрлар: ўқув қўлланма / масъул муҳаррир А. Қаюмов. – Тошкент: Адолат, 2004.
11. Умаров А.А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли: социол. фан. д-ри … дис. – Тошкент: ЎзМУ, 2005.
12. Harris M.H. History of Libraries in the Western World. – 4th ed. – Metuchen (NJ): Scarecrow Press, 1995.
13. Pedersen J. The Arabic Book / transl. by G. French. – Princeton: Princeton University Press, 1984.
14. Murray S.A.P. The Library: An Illustrated History. – New York: Skyhorse Publishing; Chicago: ALA Editions, 2009.
15. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги «Начала», 1997.
16. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. – М.: Медиум, 1995.
17. Бертельс Е.Э. Избранные труды. – Т. 1. – М., 1965.
18. Самойлович А.Н. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня / публ. А. Язбердиева // Известия АН Туркменской ССР. Серия общественных наук. – 1981. – № 1. – С. 74–79.